

## TIL KOMPETENSIYASINI BAHOLASHDA SUN'Y INTELLEKT (AI) TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

**Do'stnazarova Sevinch Rustamovna**  
**dustnazarovasevinch@gmail.com**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (AI)ning til kompetensiyasini baholashdagi imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinadi. Adabiy manbalar — Alisher Navoiy, Borxes, Andersen, Qodiriy, Ishiguro va boshqa yozuvchilarning asarlari orqali tilning grammatik aniqligi bilan birga uning ruhiy, emotsional va madaniy qatlamlari yoritiladi. Maqola AIning obyektivligi va tezkorligini e'tirof etgan holda, tilning "ruhi"ni baholashda inson tafakkuri zarurligini ta'kidlaydi. Xulosa sifatida, kelajak ta'lim tizimida mashina aniqligi va insoniy lisoniy chuqurlik o'rtasida muvozanat topish muhimligi qayd etiladi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, til kompetensiyasi, grammatik tahlil, emotsional chuqurlik, adabiyot va til, ta'lim tizimi, obyektiv baholash, lisoniy ruh.

**Аннотация:** В статье рассматриваются возможности и ограничения современных технологий, в частности искусственного интеллекта (AI), в оценке языковой компетенции. Через литературные примеры — произведения Навои, Борхеса, Андерсена, Кадыри, Исигуро и других авторов — раскрывается не только грамматическая точность языка, но и его духовные, эмоциональные и культурные измерения. Подчеркивается объективность и скорость алгоритмов AI, однако отмечается, что оценка «духа языка» требует человеческого мышления. В заключение делается вывод о необходимости нахождения баланса между алгоритмической точностью машин и глубиной человеческой речи в будущем образовательном процессе.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, языковая компетенция, грамматический анализ, эмоциональная глубина, литература и язык, система образования, объективная оценка, языковой дух

**Abstract.** This article explores the potential and limitations of modern technologies, particularly Artificial Intelligence (AI), in assessing language competence. Drawing on literary references — from Navoi, Borges, Andersen, Qodiriy, Ishiguro, and others — it highlights not only the grammatical precision of language but also its spiritual, emotional, and cultural dimensions. While AI offers unmatched speed and objectivity, the paper emphasizes that evaluating the “soul of language” still requires human insight. The conclusion stresses the importance of maintaining a balance between machine-driven accuracy and the human depth of linguistic expression in future education systems.

**Keywords:** Artificial Intelligence, language competence, grammatical analysis, emotional depth, literature and language, education system, objective assessment, linguistic spirit.

**Kirish.** Bugungi zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda til insoniyatning eng murakkab madaniy mahsulidir. U, nafaqat muloqot vositasi, balki algoritmik tahlil obyektiga ham aylanib bormoqda. Sun'iy intellekt (AI) til ko'nikmasini baholashda misli ko'rilmagan aniqlik va tezkorlikni taklif etmoqda. Biroq, til faqatgina grammatik qoidalar to'plamimi yoki ortida turli xil zamonaviylashgan "mashina" lar

ilg'ay olmaydigan ruh yashirin bo'lgan omilmi? Ushbu savolga javob topish uchun adabiyotning falsafiy qatlamlariga nazar tashlaymiz.

**Asosiy qism.** Alisher Navoiy o'zining "Saddi Iskandariy" dostonida dunyoning jamiyki burchagini va haqiqatini ko'rsatuvchi sehrli ko'zgu — "Oynayi jahonnamoy" haqida yozadi. Zamonaviy sun'y intellekt texnologiyalari esa bu lisoniy olamdagi o'sha afsonaviy ko'zgidir. Xorxe Luis Borxes "Bobil kutubxonasi" asarida: "Kutubxona cheksizdir... unda barcha tillardagi barcha mumkin bo'lgan kitoblar mavjud", — deya ta'kidlaydi. AI esa aynan shu cheksiz kutubxona singari millionlab, balki trillionlab ma'lumotlarni soniyalar ichida qayta ishlaydiva taqdim etadi.

AIning eng katta ustunligi — uning xolisligi. Yuval Noy Harari "21 asr uchun 21 saboq" asarida keltirganidek, algoritmlar inson imtihon oluvchilardan farqli o'laroq, charchoq va turli xil shaxsiy moyilliklardan xolidir. Ular talabani talaffuzi va grammatikasini Navoiyning ko'zgusi kabi aniq, tiniq va sub'ektivlikdan holi ravishda aks ettiradi. Biroq, tilning texnik va grammatik aniqligi uning mukammalligini bildirmaydi. Hans Kristian Andersenning "Bulbul" ertagida mexanik bulbul bir xil kuyni adashmasdan ijro etadi, lekin unda dard, erkinlik, jonlilik va "hayotiy nafas" yo'q. Til kompetensiyasini baholashda ham AI grammatikani mukammal tahlil qilishiga qaramasdan, nutqdagi emotsional chuqurlikni, ma'noviy boylikni sezmaydi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi Otabek va Kumush dialoglaridagi nozik ishoralar, o'zbekona lutf va noodatiy pichinglarni AI algoritmi shunchaki "normadan og'ish" yoki "xato" deb baholashi mumkin. Zamonaviy adabiyotning Nobel mukofoti sovrindori Kazuo Ishiguro o'zining "Klara va Quyosh" romanida Klara ismli robot orqali inson nutqidagi paradoksni ochib beradi: "Odamlar har doim ham o'zlari aytayotgan narsani nazarda tutishmaydi". Ya'ni oddiy insonlar nutqida ma'nolar turli xil uslubda chuqur, his-tuyg'u va emotsiyalarga boy holda yoritiladi. Ted Channing "Nafas" kitobida aytilganidek, til bu tajribadir. AI "olma"ning grammatik xususiyatini biladi, lekin uning empirik bilimni ya'ni ta'mini yoxud hidini bilmay turib, u haqidagi essega haqqoniy baho bera olmaydi. Shuningdek, agar tilni baholash to'liq AIga topshirilsa, bu tilning soddalashishiga va va bora-bora "ruhsizlanishiga" olib kelishi mumkin. Jorj Oruellning "1984" asaridagi "Newspeak" (Yangitil) g'oyadan shuni eslashimiz mumkinki, "til qisqartirilsa, tafakkur ham cheklanadi". Rey Bredberi "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" asarida ogohlantirganidek, oxir-oqibatda insonlar: "Bizga chuqur fikrlar emas, balki shunchaki tezkor va yuzaki ma'lumotlar kerak", degan g'oyaga tayanib qolish kuzatiladi. AI algoritmlari "standart" va "o'rtacha" ko'rsatkichlarga intiladi. Agar talabalar faqat AI testidan o'tish uchun o'qisalar, lisoniy erkinlik o'rnini quruq mantiq egallaydi. Ian Makyuanning "Menga o'xshagan mashinalar" asaridagi robot Adam kabi, AI ham tilning "kulrang zonalarini" — ya'ni grammatik qolipga tushmaydigan, lekin uslubiy jihatdan chiroyli bo'lgan iboralarni "xato" deb topishi mumkin.

Bundan tashqari, Gyoetening "Sehrgarning shogirdi" asaridagi singari, biz nazorat qila olmaydigan kuchli vositani (AI) ishga tushirib yubormasligimiz kerak va ijod mahsuli (AI) o'z yaratuvchisining asl maqsadlaridan chetga chiqishi, ya'ni tilni baholash o'rniga uni mexanik, tizimlashtirilgan qolipga solib qo'yishi mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, kelajak ta'lim tizimi AIning algoritmik aniqligi bilan insonning "lisoniy ruhi" o'rtasidagi muhim muvozanatni topishi shart. Mashina tilning "tanasini" (grammatikasi va leksikasini) mukammal tekshirsa-da, uning "ko'nglini" (ma'no va estetikasini) baholash baribir insonning zimmasida qolishi lozim.

Zero, chinakam til bilish darajasi — bu faqatgina to'g'ri gapirisha olish emas, balki Borxes aytgan o'sha "cheksiz kutubxona" ummonidan inson qalbini titratadigan haqiqatni topa olish va yorita bilish mahoratidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Andersen, H. C. (1843). *The nightingale*. Copenhagen.
2. Bradbury, R. (1953). *Fahrenheit 451*. New York: Ballantine Books.
3. Chiang, T. (2019). *Exhalation*. New York: Alfred A. Knopf.
4. Crystal, D. (2010). *The Cambridge encyclopedia of language* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
5. Goethe, J. W. (1797). *Der Zauberlehrling*. Weimar., Y. N. (2018). *21 lessons for the 21st century*. London: Jonathan Cape.
6. Ishiguro, K. (2021). *Klara and the sun*. London: Faber & Faber.
7. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). *Speech and language processing* (3rd ed. draft). Stanford University.
8. Kaplan, R. B., & Baldauf, R. B. (1997). *Language planning: From practice to theory*. Clevedon: Multilingual Matters.
9. McEwan, I. (2019). *Machines like me*. London: Jonathan Cape.
10. Orwell, G. (1949). *Nineteen eighty-four*. London: Secker & Warburg.
11. Qodiriy, A. (1926). *O'tkan kunlar*. Toshkent: O'zbek Davlat Nashriyoti.
12. UNESCO. (2021). *Artificial intelligence and education: Guidance for policy-makers*. Paris: UNESCO Publishing.
13. Winterson, J. (2019). *Frankissstein: A love story*. London: Jonathan Cape.
14. Floridi, L. (2014). *The fourth revolution: How the infosphere is reshaping human reality*. Oxford: Oxford University Press.